

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

HADYA SHARTNOMASI TUSHUNCHASI, TARIXI, TUZILISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Asranova Gulnoraxon Abdurasulovna

Andijon viloyati sudi sudyasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan hadya shartnomasi haqida so'z borgan. Uning kelib chiqish tarixi, qo'llaniladigan umumiy qoidalar, tuzish va rasmiylashtirish tartibi, hadyani bekor qilish asoslari, shuningdek hadyaning xayr-exson shakli borasida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shartnoma, kelishuv, hadya, xayr-exson, ko'char mulk. ko'chmas mulk, avtomototransport.

KIRISH

Shartnomalar judayam qiziqarli va juda keng mavzu. Shu sababli ham bu borada Fuqarolik kodeksida kattagina joy ajratilgan. FK 353-moddasida keltirilgan tarifga binoan, kki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.[1] Taraflar soniga ko'ra bir tomonlama, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama turlarga bo'linadi. O'z navbatida mazmuniga qarab ham shartnomalar ham bir necha turlarga bo'linadi. Amaliyotda keng qo'llaniladiganlaridan biri hadya shartnomasidir. Fuqarolik huquqining qadimiy shartnomalaridan biri bo'lib, qadimgi Rimda Respublika davridayoq (milloddan avvalgi V-I asrlarda) mulk huquqining vujudga kelish asosi sifatida tan olingan. Ushbu institutning vujudga kelish tarixi imperator Sinsiy qonunlariga borib taqaladi.

MATERIAL VA METODLAR

FK 502-moddaga binoan, Hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoinki ozod qilish majburiyatini oladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida hadya shartnomasi o'zining o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Eng avvalo, asosiy farqlaridan biri uning mutlaqo tekinga tuzilishidir. Tekinga va haq evaziga tuziladigan shartnomalarning fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimidagi nisbati qonun hujjatlari prezumbsiyasi yordamida aniqlanadi. Agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmun va mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi (FK 355-modda).

Ikkinchidan, hadya qiluvchining mulki kamayishi hisobiga hadya oluvchining mulki ko'payishi ham hadya shartnomasining belgisidir. Hadya oluvchi mulkining hajmi hadya qiluvchi unga ashyo yoki mulk huquqini berishi yoxud majburiyatidan ozod qilishi bilan ham ko'payadi. Uni hadya shartnomasi deb hisoblashimiz uchun natijalarda hadya oluvchining mulki ko'payishi lozim.[2]Shuni esdan chiqarmangki,hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Chunki bu hadya emas, vasiyatnomaga to'g'ri keladi. Hadya shartnomasida ko'zda tutilgan mulk taraflar tomonidan shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.Hadya shartnomasini imzolangan zaxotiy oq ikkinchi taraf mulkiga o'tib ketadi va qaror o'zgartirilmaydi. Agar hadya qilishni niyat qilgan inson hali shartnoma tuzilmasdan olamdan o'tib qolsa, bo'lajak hadya egasi mulkni talab qilishga haqli emas. Bu shunchaki quruq va'da hisoblanadi. Agar notarial idorada ish boshlangan bo'lib, shartnoma tuzish harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa, ishni marxumning yaqinlari meros guvohnomasini rasmiylashtirish orqali davom ettirishlari mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Shartnoma asosida ko'chmas mulk-uy hadya qilingani amaliyotda ko'p kuzatilgani bois, ba'zi insonlar boshqa narsalar bilan hadya shartnomasini tuzish mumkin emas, deb o'ylaydilar. Aslida rasmiy hadya avtomashina, qimmatbaxo qog'oz, qimmatbaxo buyum, ko'p miqdordagi pul ham bo'lishi mumkin. Qonunda ko'chmas mulk va avtomototransportlarni notarial tartibda xadya qilish majburiy belgilangan. Yuqorida sanalgan boshqa narsalarni xohlasalar o'zaro kelishishlari, xohlasalar rasmiylashtirish uchun notarial idoralarga murojaat qilishlari mumkin.Agar xadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, xadyani rad etish ham yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Agar xadya shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, xadyani qabul qilishni rad etish ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Hadya



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi. Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan o'ldirgan taqdirda hadya qiluvchining vorislari sudda hadyani bekor qilishni talab etish huquqiga ega. Agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo'q bo'lib ketishi xavfini solsa, hadya qiluvchi hadya bekor etilishini sud tartibida talab qilishga haqli. Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi. Hadya shartnomasida hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo'yilishi mumkin. Hadya bekor qilingan taqdirda hadya oluvchi hadya qilingan ashyoni, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatda saqlanib qolgan bo'lsa, qaytarishi lozim. Hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish va hadyani bekor qilish to'g'risidagi qoidalar og'zaki tuzilgan hadya shartnomalariga nisbatan qo'llanmaydi. Qurollar yoki shu kabi jamoat xavfsizligiga xavf soluvchi buyumlarni hadya qilish mumkin emas. Xadya qiluvchi hadya qilingan xonadonda oila a'zosi sifatida istiqomat qilishga haqlidir. Hadya qiluvchi hadya evaziga nimadir talab qilishga haqli emas. "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga binoan ko'chmas mulk ob'yektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlarni tuzish chog'idagi vositachilik (ko'chmas mulkning oldi-sotdisi, ijarasi, garovi, ayirboshlanishi, hadya etilishi, rentasi, ko'chmas mulkdan tekin foydalanilishi va umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyi (kvartirani) boshqa shaxsga berish bilan bog'liq harakatlar) qonunchilikda belgilangan tartibda buyurtmachi bilan tuzilgan rieltorlik xizmatlari ko'rsatish shartnomasi asosida rieltorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.[3]

Bunda rieltorlik tashkiloti mazkur bitimlarning bevosita tarafi bo'lishi mumkin emas. Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. SHunga ko'ra, notariuslar tomonidan bitimni tasdiqlashda avtomashina egasining turmush o'rtog'ining roziligi talab etiladi. Mulk er yoki xotining hadya asosida o'tgan hollarda esa bitimni tasdiqlash uchun er yoki xotinning roziligi talab qilinmaydi.[4]



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hadya oluvchi o'ziga hadya topshirilgunga qadar istagan vaqtida uni rad etishi mumkin va bu holda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Agar hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadyani rad etish ham yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Agar hadya shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, hadyani qabul qilishni rad etish ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Agar hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadya qiluvchi hadya oluvchidan hadyani olishni rad etishi oqibatida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Hadya qilish, ayni paytda hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki amalga oshirilishi mumkin, ushbu moddaning uchinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI. Hadyani topshirish uni taqdim qilish, ramziy topshirish (kalit va hokazolarni taqdim qilish) yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

- Ko'char mulkni hadya qilish shartnomasi:
- hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;
- fuqarolar o'rtasida bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganda;
- shartnomada kelajakda hadya etish va'da qilingan hollarda oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.[5]

Yuridik shaxs xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ashyoni, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdorning roziligi bilan hadya etishga haqli. Bu cheklash qiymati katta bo'lmagan odatdagi sovg'alarga taalluqli emas.

Umumiy birgalikdagi mulkni hadya qilishga umumiy birgalikdagi mulkning barcha ishtirokchilari roziligi bilan yo'l qo'yiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hadya qiluvchiga tegishli uchinchi shaxsdan talab qilish huquqini hadya qilish Fuqarolik Kodeks 313-317, 319 va 320-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Ijara huquqini yoki boshqalarning ashyosiga o'zgacha huquqni uning mulkdorining yoki unga nisbatan xo'jalik yuritish yoxud operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxsning roziligisiz hadya qilishga, agar bunday huquqqa asos bo'lgan qonunda yoki shartnomada uni mazkur shaxslar roziligisiz boshqa shaxslarga berish taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Hadya olayotgan shaxs o'rniga uning uchinchi shaxs oldidagi majburiyatini bajarish yo'li bilan hadya qilish Fuqarolik Kodeks 241-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Hadya oluvchining uchinchi shaxsdan qarzini hadya qiluvchining o'ziga olishi yo'li bilan hadya qilish Fuqarolik Kodeks 322-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Hadya oluvchining nomi va hadya narsasi ko'rsatilmagan hadyani vakil tomonidan amalga oshirish ishonchnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Agar shartnoma tuzilgandan so'ng hadya qiluvchining moddiy ahvoli jiddiy yomonlashgan bo'lsa, u kelajakda hadya oluvchiga ashyoni yoki mulk huquqini berish yo bo'lmasa, uni mulkiy majburiyatdan ozod etish va'da qilingan shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli. Ushbu asoslarda hadya qiluvchining hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortishi hadya oluvchiga zararni qoplashni talab qilish huquqini bermaydi.

Hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi. Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan o'ldirgan taqdirda hadya qiluvchining vorislari sudda hadyani bekor qilishni talab etish huquqiga ega. Agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo'q bo'lib ketishi xavfini solsa, hadya qiluvchi hadya bekor etilishini sud tartibida talab qilishga haqli. Manfaatdor shaxsning talabiga binoan sud yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik va jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik qoidalarini buzib, to'lovga qobiliyatsizlik haqida ish qo'zg'atilishidan oldingi bir yil ichida o'zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq mablag'lar hisobidan qilgan hadyasini bekor qilishi mumkin. Hadya shartnomasida



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo'yilishi mumkin. Hadya bekor qilingan taqdirda hadya oluvchi hadya qilingan ashyoni, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatda saqlanib qolgan bo'lsa, qaytarishi lozim. Hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish va hadyani bekor qilish to'g'risidagi qoidalar og'zaki tuzilgan hadya shartnomalariga nisbatan qo'llanmaydi.

Hadya qilingan ashyodagi kamchiliklar tufayli hadya oluvchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar bu kamchiliklar ashyo hadya oluvchiga topshirilgunga qadar paydo bo'lgani aniq ko'rinib turgan kamchiliklar jumlasiga kirmasligi va hadya qiluvchi bu haqda bilgan bo'lsa-da, hadya oluvchini ogohlantirmaganligi isbot qilingan bo'lsa, Fuqarolik Kodeks 57-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq hadya qiluvchi tomonidan qoplanishi lozim.

Agar hadya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, hadya shartnomasiga muvofiq hadya va'da qilingan hadya oluvchining huquqlari uning merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) o'tmaydi. Agar hadya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, hadya shartnomasiga muvofiq hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari uning merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) o'tadi.

Umumfoydali maqsadlarda qilingan hadya xayr-ehson hisoblanadi. Xayr-ehson fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga va shunga o'xshash boshqa muassasalarga, xayriya, ilmiy va o'quv muassasalariga, fondlarga, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalariga, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga, shuningdek davlatga va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi. Xayr-ehson qiluvchi mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilganida bu mol-mulkdan ma'lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo'yishi lozim, yuridik shaxslarga xayr-ehson qilganda esa bu shartni qo'yishi mumkin. Bunday shart bo'lmaganida mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilish oddiy hadya deb hisoblanadi, qolgan hollarda esa xayr-ehson qilingan mol-mulkdan hadya oluvchi uning vazifasiga muvofiq foydalanadi.

XULOSA

Biron-bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish),



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi.

Hadya shartnomasida hadya narsasi aniq ko'rsatilishi lozim.

Shuni unutmashlik kerakki hadya shartnomasiga oid qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi hadya shartnomasini haqiqiy emasligiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. 21.12.1995
URL:<https://lex.uz/docs/-111189#-155450>
2. Choriyev M.Sh. Hadya va ayriboshlash shartnomasi. O'quv qo'llanma - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2021. 69 bet.
URL:https://drive.google.com/file/d/1s2T9Oi_5_85bwGIV__5cjzg20TReHyM/view
3. O'zbekiston Respublikasining 22.12.2010 yildagi O'RQ-269-sonli "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, URL:<https://lex.uz/docs/-1714042>
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 01.09.1998da kuchga kirgan, URL:<https://lex.uz/docs/-104720>
5. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-martdagi 38-son qarori bilan tasdiqlangan "Avtomototransport vositalari bilan bog'liq bitimlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom" URL:<https://lex.uz/docs/-973690>.

